



O‘ZBEKISTONNING
TANIQLI
OLIMLARI
2023



O'ZBEKISTONNING TANIQLI OLIMLARI ENSIKLOPEDIYASI 2023-YIL TO'PLAMI

Akademik

Shukurullo Ubaydullayevich Yo'ldoshevning hayoti, ilmiy-pedagogik, ijtimoiy faoliyati va Oliy ta'lim kafedralari, agrar sohalar: kolxoz, sovxoz, fermer, dehqon, suv xo'jaliklari uchun tayyorlangan va chop etilgan darsliklar, ilmiy monografiyalari, muammoli ma'ruzalar to'plami, tavsiya etilgan texnologik tavsiyalar, jihoz, moslama, uskuna va suv nasoslar katalogi va ixtirolar uchun olingan mualliflik guvohnomalar tavsifnomasi (Ensiklopediya. Tom II 341-347 bb.)

Toshkent 2023





Taraqqiyotning tamal toshi ham, mamlakatni qudratli, millatni buyuk qiladigan kuch ham bu --- ilm-fan, ta'lim va tarbiyadir.

Jonkuyar olimlarimiz buyuk ajdodlarimizning ilmiy an'analarini munosib davom ettirgan holda, ilm-fanni taraqqiyotimizning drayveriga aylantirib, mamlakat rivojiga xizmat qiladigan muhim kashfiyotlar yaratishlariga ishonaman.

Shavkat Mirziyoyev
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti



YO'LDOSHEV SHUKURULLO UBAYDULLAYEVICH
Texnika fanlari doktori, professor, O'zbekiston Qishloq xo'jalik
fanlar akademiyasining akademigi, fan arbobi

Quyosh har kuni o'zining zarrin nurlarini sharqdan g'arbga tomon butun tabiatga bir xilda, beminnat sochadi. Xuddi shu kabi hozirgi zamon ilm-fanining, ayniqsa aniq fanlarning poydevori, taraqqiy etishi ham aynan sharqdan boshlanganligi hayotiy haqiqatdir!



Shukurullo Ubaydullayevich

Yo'ldoshev - Respublikamiz agrar soha tizimidagi meliorativ, dehqonchilik va suv xo'jaliklarida foydalaniladigan texnikalarning konstruktiv, texnologik va texnikaviy (ekspluatatsion) xossalarini tahlil va tadqiq qilish, foydalanish, ta'mirlash, saqlash va diagnostikalash texnologiyalari bo'yicha mashinalarning ishonchlilik ko'rsatkichlarini (buzilmasdan ishlashligi puxtalik-mustahkamliligi, ta'mirbopligi va saqlanuvchanligi). detallarning ishqalanuvchanligi-yeyilishi (tribonikasi),

zanglashga chidamliligi sohalari bo'yicha taniqli olim.



“Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti - Milliy Tadqiqot Universitetining



“Gidromeliorativ ishlarini mexanizatsiyalash” kafedrasining professori, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan fan arbobi, akademik, texnika fanlari doktori, O'zbekiston

Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi, "TIQXMMI" MTU da xizmat ko'rsatgan professor, akademik A.I.Selivanov (Moskva sh.) nomli yubiley medali sovrindori.



"Qishloq, melioratsiya texnikalaridan foydalanish, ta'mirlash va tiklash texnologiyasi", "Qishloq xo'jaligi va melioratsiya ishlarini mexanizatsiyalash texnologiyalari", "Mashinalarda ishqalanish va yeyilish, "Qishloq xo'jaligida elektr texnologiyalari va elektr uskunalari" yo'nalishlari va Respublika agrar sektor xo'jaliklari tizimidagi texnik va texnologik muammolari bo'yicha quyidagi ilmiy maktablarni yaratgan va Davlat grantlariga rahbarlik qilgan:



- Qishloq, melioratsiya va suv xo'jaliklari tizimidagi mashina, agregat va suv nasoslarini takomillashtirish, ta'mirlash, saqlash va diagnostikalash texnologiyalari va texnik muammolari.

- Mashinalar ishonchliligi, detallarning ishqalanishi, yeyilish nazariyasi va amaliyoti.

- Mashinalar resursidan samarali foydalanish va detallarni qayta tiklash texnologiyasi.



- Moshinalarda yoqilg'i-moylash materiallaridan foydalanish muammolari.



Akademik Yo'ldoshev Sh.U. mashina, mexanizm, suv nasoslari va agregatlaridan foydalanish, ularning eskirish jarayonlarini, buzilishini, ishqalanish, yeyilish, sinish, qiyshayish, bukulish va zanglash xossalarini o'rgangan, tahlil qilgan va nazariy amaliy tavsiya va texnologiyalar yaratgan.

Texnika fanlar doktori, professor, O'zQXFA akademigi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan fan arbobi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi a'lochisi,



TIQXMMI da xizmat ko'rsatgan professor Yo'ldoshev Shukurullo Ubaydullayevich 1935-yil 11-aprelida Toshkent shahrining markazi (o'sha paytda) "Eski Juva" dahasining "Xazrati Imom" mahallasida ziyolilar oilasida tavallud topgan.



1957-yilda O'rta Osiyo Politexnika instituti (hozirgi I.A.Karimov nomidagi TDTU) ni "Mexanika" fakultetini tamomlab muxandis-avtomobilchi mutaxassisligini olgan.

Hayoti va ilmiy faoliyati sanalari:

* 1957-1959-yillar - "O'zavtoyo'llar" Vazirligi tizimidagi 3-sonli avtobazada mexanik va Vazirlikda katta muxandis;

* 1959-1964-yillar O'rta Osiyo qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash va



elektrlashtirish institutida aspirant, kichik va katta ilmiy xodimi:



U melioratsiya va suv xo'jaliklarida foydalaniladigan texnika na nasoslarning, dehqonchilikda ishlatiladigan plug, seyalka, cultivator, paxta terish, g'alla o'rish kombaynlarning ishonchlilik ko'rsatkichlarini (buzilmasdan ishlashligi, puxtalik-mustahkamligi, yeyilish va ishkalanishga, zanglashga chidamliligi, ta'mirbopligi, saqlanuvchanligi va diagnostikaga moslanganlik xususiyatlarini) tadqiq qilgan, nazariy va amaliy tavsiya va texnologiyalar yaratgan.

* 1974-1977-yillar SAIME ilmiy ishlar bo'yicha direktorning birinchi o'rinbosari;

* 1977-1991-yillarda TIQXMMIning "Materialshunoslik", "Mashinalar ishonchliligi va ta'mirlash" kafedralar mudiri, tarmoq laboratoriya rahbari. "Qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash" Markazining

ixtirolar uchun patentlar muallifidir.



27 ta fan nomzodi va 4 ta fan doktorlari tayyorlagan. 40 dan ortiq mashinalardan foydalanish, ta'mirlash, saqlash va diagnostikalash texnologiyasi bo'yicha texnologik xaritalar va tavsiyalar yaratgan 120 dan ortiq o'quv-uslubiy qo'llanma va ko'rsatmalar tayyorlagan va chop etgan. Ilmiy ma'ruzalar bilan Turkiya (Kushadas sh., 1993-yil), SUAR KNR (1993-



yil), Moskva (1993-yil), Minsk (1994-yil), Isroil ("Texnion" Universiteti, 1999-yil). Pokiston (Loxar sh. 2001-yil) kabi shahar va davlatlarda ilmiy anjumanlarda qatnashgan va ma'ruzalar qilgan.

Olim ko'plab qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, moshinalar konstruksiyasini takomillashtirish, texnik xizmat ko'rsatish, ta'mirlash, saqlash va diagnostikalash yo'nalishlari bo'yicha ilmiy to'plam va tezislarga bosh muharrirlik qilgan.

1977-yildan TIQXMMI Ilmiy Kengashi a'zosi va ixtisoslashgan Ilmiy Kengashlar a'zosi, ilmiy kotibi, rais o'rinbosari va raisi.



Akademik Sh.U.Yo'ldoshev qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash, mashinalardan foydalanish va ta'mirlash texnologiyalari bo'yicha tavsiyalar yaratish, agrar Oliy ta'limni takomillashtirish, yuqori malakali injener, bakalavr, magistr, aspirant va doktorantlar tayyorlashdagi xizmatlari uchun "Mustaqillik nishoni" (1992-yil). "O'zbekiston belgisi" (1997-yil). Akademik Selivanov A.I. nomli (Moskva - yubiley medali sovrindori, 2009-yil), "O'zbekiston mustaqilligiga 20-yil (2011-yil), "O'zbekiston mustaqilligiga 25-yil" (2016-yil), O'zbekiston mustaqilligiga 26-yil (2017-yil) va "Mehnat faxriysi" birinchi darajali ko'krak nishoni (2018-yil) bilan taqdirlangan.

U Respublika Oliy ta'lim, Qishloq va suv xo'jaliklari vazirligi, GOSNITI, SredAz GOSNITI, TIQXMMI- Milliy tadqiqot universiteti va bir nechta tashkilot, xo'jaliklarning faxriy yorliqlari" bilan taqdirlangan.



Akademik Sh.U. Yo'ldoshev 1994-yil va 2022-yildan Mustaqil Davlatlar hamdo'stligi mamlakatlari Davlatlararo Kengashining — dehqonchilik fani va dehqonchilik sanoat majmuidagi axborot masalalari bo'yicha "Аграрная наука" ilmiy - nazariy jurnal (Moskva sh.) va Ukraina "Milliy texnik Universitetining "Вестник" jurnalining taxririya a'zosi hisoblanadi.


2004-yildan va hozir ham "GIM" kafedrasida professori lavozimida ishlab kelmoqda.



Sh.U. Yo'ldoshev 3 ta farzand, 11 ta nabira va 6 ta evaralarning bobosi. Olim ziyoli farzandlarni voyaga yetkazdi, jumladan, nabirasi Shukriyaxon Shuhrat qizi 2022-yilda Shvedsariyaning Jeneva Universiteti talabasi bo'ldi! Nabirasi Ulug'bek Akmal o'g'li esa Angliyaning Manchester universitetini tamomladi hamda 2023-yil olimning yana bir

evarasi Zoyaxonim Ulug'bek qizi dunyoga keldi.

Akademik Shukrullo Ubaydullayevich agrar soha xo'jaliklarini industrizatsiyalash va mashinalar resurslaridan to'g'ri va samarali foydalanish bo'yicha o'z ilmiy maktablarini yaratgan olimdir!



Umumiy mehnat faoliyati 65-yil. Akademik Sh.U. Yo'ldoshev 65 yillik ilmiy, ilmiy-pedagogik faoliyati davomida shijoat va samaradorlik, zavq bilan fan, Oliy maktab va tadqiqot ishlanmalariga tizimli yondashuv asosida agrar soha xo'jaliklar infratuzilmasini ilmiy asosda modernizatsiyalash, yangi

zamonaviy texnikalarni joriy etish, ularning resurslaridan samarali foydalanish, ishonchlilik ko'rsatkichlarini oshirish bo'yicha mehnat qilmoqda.

Ustozning talabchanligi, to'g'ri so'zligi, yosh tadqiqotchilarga e'tiborliligi, g'amxo'rliги va mehribonligi millatimiz yoshlarini bilimdon, ilg'or, raqobatbardosh, madaniyatli kadrlar bo'lib yetishishiga zamin yaratmoqda.



Olim shogirdlariga bergan nasihatlarida shunday deydi: Talaba, magistr va tadqiqotchi izlanuvchilarni ilm egallashi, o'tgan buyuk alloma va olimlarning asarlarini o'rganib bilimlarni to'plashi, salohiyatli bo'lishi shuning uchun kerakki, yaratilgan yangilik, ixtiro va texnologik jarayonlar dehqon, fermer va suv xo'jaligi xodimlarining muammolarini bartaraf etib, ularning mushkulini oson qilib, bu sohada boshqalarga ijobiy namuna bo'lishidan iboratdir!



Akademik Shukurullo Ubaydullayevich kabi o'z shogirdlari: injiner, bakalavr, magistr, tadqiqotchi-izlanuvchilarda ilmga, yozgan maqola, dissertatsiya, monografiya, darslik va yaratgan yangilik-ixtirolariga nisbatan zavq va g'urur tuyg'ularini uyg'ota olgan olim ustozlarga shon-sharaflar bo'lsin!

Biz hech ikkilanmay aytishimiz mumkinki, akademik Shukurullo Ubaydullayevich Uchinchi Renessans ostonasida turgan Yangi O'zbekiston ilm-faning asosiy ustunlaridan biridir!

||

AKADEMIK SHUKURULLO UBAYDULLAYEVICH YO'LDOSHEVNING ASOSIY ILMIY MONOGRAFIYA VA DARSЛИKLARI

1. Texnicheskoe sovershenstvovanie xlopkoubochnix mashin. Toshkent: "O'zbekiston", 1976-104s.
2. Osnovi texnicheskogo urovnya xlopkoubochnix mashin. Toshkent: "Fan", 1980-238s.
3. Sistemniy podxod k otsenki mashin. Toshkent: "Mehnat", 1988-206b.
4. Mashinalar ishonchliligi va ularni ta'mirlash asoslari. Toshkent: "O'zbekiston" 1994-476s.
5. Mashinalar resursidan to'liq foydalanish asoslari va muammolari. Toshkent: CHP "Yugay", 2009-45b.
6. Mashinalar ishonchliligi va ta'mirlash asoslari. Toshkent "O'zbekiston", 2006-693b.
7. Suv nasosi detallari resursini tiklash texnologiyasini modernizatsiyalash. Toshkent: CHP "Yugay", 2020-116b.

**AKADEMIK
SHUKURULLO UBAYDULLAYEVICH YO'LDOSHEVNING
HAYOTI VA ILMIY-PEDAGOGIK FAOLIYATI TO'G'RISIDAGI
MATBUOTDA CHOP ETILGAN ASOSIY NASHRLAR**

1. O'zbekiston Milliy ensiklopediyasi. Toshkent: 2002, Tom 4-36 b.
2. Akademik Sh.U. Yo'ldoshevning hayoti, ilmiy-pedagogik va ijtimoiy faoliyatining tavsifnomasi. Toshkent: Fan, 1995-48 b.
3. Sh.U. Yo'ldoshev – 75 yoshda. Jurnal “Mexanika muammolari”. Toshkent: 2010 №1, 67 b.
4. Kamolot chegara bilmas. Akademik Sh.U. Yo'ldoshevning va ilmiy-pedagogik faoliyatidan lavxalar (o'zbek va rus tillarida). Toshkent. Sharq nashriyoti. 2005 – 161 b.
5. O'Zrfa “Mexanika muammolari”. O'zbekistonning mexanik olimi – Sh.U. Yo'ldoshev. Toshkent – 2020. № 1-2, 166-167 b.b.
6. O'zbekistonning tanikli olimlari. Ensiklopediya. Tom II. Toshkent “Science and innovation” MCHJ. 2023. 341-349 b.b.

